

**Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda tizimosti korxonalarida
2024-yilning III choragi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish
sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida “Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan Dastur”ga muvofiq joriy yilning III choragi davomida mazkur sohada quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- mazkur Dasturning 7 ta muddati belgilangan chora-tadbirlar o‘z vaqtida bajarilgan, 19 ta tadbirlar doimiy ravishda amalga oshirilishi belgilangan tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda;

- hisobot davrida “Navoiy KMK” va “O‘zbekgeofizika” AJ “Yakkabog‘ geofizika ekspeditsiyasi”ning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi ISO 37001:2016 va O‘z DST ISO 37001:2019 muvofiqlik sertifikatlarini qo‘lga kiritdi;

- mehnat munosabatlarida qonun buzilish holatlarini va aloqa kanallari orqali yuborilgan murojaatlarni o‘rganish maqsadida hisobot davrida jami **19 ta** xizmat surishtiruvni o‘tkazilgan, natijalari bo‘yicha tegishli xulosalar tayyorlangan va tegishli chora-tadbirlar ko‘rilgan (*11 nafar xodimga intizomiy jazo, 8 nafar xodimlar egallab turgan lavozimidan ozod etilgan, 3 ta normativ hujjat qabul qilingan va h.k.*);

- hisobot davrida korrupsiya omillarni oldini olish va lavozim yo‘riqnomasi bo‘yicha “yuqori” korrupsiogen xavf-xatari bo‘lgan sohalarni tartibga solish, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samardorligini oshirishga doir to‘rtta ichki normativ hujjatlar qabul qilindi (*“Qurilish ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish va omborxonalar ishlarini tashkil etish bo‘yicha ichki me‘yoriy hujjatlarni tasdiqlash”, “Kon-geologiya vazirligi markaziy apparatida to‘lovlarni amalga oshirish va hujjatlar aylanishi” to‘g‘risidagi Nizomlar va h.k.*);

- joriy yilning III-choragi davomida 7 ta lavozimga fuqarolarni ishga olish ochiq tanlov va “Argos” tizimi orqali test sinovlari amalga oshirilgan hamda o‘tkazilgan sinov tadbirlarini Internet orqali real vaqt rejimida kuzatish ta‘minlangan (*rasmiy veb-saytda ishga qabul qilish jarayonlari yoritilgan*) va ularga vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan ichki me‘yoriy hujjatlar To‘plami tarqatildi va tushuntirish ishlari amalga oshirildi;

- yangi ishga qabul qilingan barcha xodimlar manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish shaklini (deklaratsiya) to‘ldirishdi va natijada manfaatlar to‘qnashuvi keltirib chiqaruvchi omillar aniqlanmadi;

- tizim osti korxonalarida xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish maqsadida deklaratsiyalar to‘ldirilishi natijasida 11 ta tizimosti korxonalarining 64 nafar xodimda 68 ta tadbirkorlik subyektlarida rahbar yoki ta‘sischilik asosida faoliyat yuritib kelayotganligi ma‘lum bo‘ldi. Mazkur holatni oldini olish maqsadida joriy yilning 12-sentabr kuni 36-3403-sonli topshiriq xati barcha tizim korxonalariga yuborildi va ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi obyekti bo‘lgan tadbirkorlik subyektlaridagi rahbar yoki ta‘sischilik faoliyatini qisqa muddatlarda to‘xtatish choralarini ko‘rish va kelgusida shu kabi holatlarga yo‘l qo‘ymaslik haqida topshirildi.

Natijada tadbirorlik subyektiga ega 2 nafar xodim o'z xoxishiga ko'ra egallab turgan lavozimidan ozod etilgani, 10 nafar xodim tadbirkorlik subyektlaridagi o'z ulushlari yoki lavozmidan voz kechishgan. Manfaatlarga to'qnashuvini oldini olishga karatilgan chora-tadbirlar davom ettirilmokda;

- Vazirlik va tizimosti tashkilotlarida davlat xaridlari jarayonlarida jami 493 ta kontragentlarni o'rganish orqali uning ishonchliligi, moliyaviy barqarorligi, davlat amaldorlari bilan aloqadorligi, manfaatlarga to'qnashuvi mavjudligini tekshirish orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni kamaytirish bo'yicha ishlar amalga oshirilib, tegishli xulosalar taqdim etilgan;

- hisobot davrida Vazirlik va tizim korxonalarida xodimlarida korrupsiyaga nisbatan muvofiq munosabatni shakllantirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida huquq-tartibot organlari va Ichki nazorat tuzilmalarining xodimlari tomonidan jami **105 ta** tushuntirish-profilaktik tadbirlari amalga oshirilgan;

- ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb-saytlari orqali jami 66 ta sohaga oid materiallar joylashtirilgan;

- ISO 37001:2016 xalqaro standart talablariga muvofiq Kon-geologiya vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'tkazilgan ichki audit natijasida vazirlikning xavf-xatarlar xaritasi, korrupsiyaga moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati va mavjud xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar Rejasi qabul qilindi;

- xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik prinsipini shakllantirish hamda korrupsiya holatlariga duch kelganda xabar berish tartibi to'g'risda videorolik tayyorlanib, Vazirlik va tizimosti korxonalarining ommaviy axborot kanallari orqali yoritildi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan Dasturda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan hisobot tayyorlanib, "Ye-anticor.uz" platformasi orqali Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborildi;

- Vazirlikda korrupsiyaga qarshi ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablarini joriy etish maqsadida "CERT Academy Group" xalqaro terening kompaniyasi mutaxassislarini jalb etgan holda 20 ta xodim ishtirokida o'quv kurslari tashkil etildi.

- joriy yilning III-choragi davomida Kon va geologiya vazirligi va tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlanib, vazirga rahbariyatiga taqdim etildi;

Vazirlikda keyingi davrda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularni oldini olish va chek qo'yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida tegishli vazifalar belgilab olindi.